

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi: yangi ekin navlari urug'chiligi yo'lga qo'yiladi

“SEMRUG' CLUSTER” MCHJ urug'chilik klasteri hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti o'rtasida ilmiy-amaliy hamkorlik hujjatlari imzolandi. Xususan litsenzion shartnoma asosida institut olimlari tomonidan yaratilgan moshning yuqori hosildor, kasalliklarga nisbatan chidamli, mahalliy agroiklim sharoitlarga tez moslashuvchan va mexanizatsiyalashgan agregatlarda yig'ib-terib olishga mos yangi “Ishonch” navi urug'chiligini yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, imzolangan hamkorlik memorandum bo'yicha dukkakli va moyli ekinlarning yangi navlarini hamkorlikda joriy etish, ekin maydonlarini kengaytirish va ilmiy-amaliy hamkorlik rivojlantiriladi.

Mazkur nav yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.